

## **Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedialardan foydalanish texnologiyalari va uning muammolari**

Akbar Shuhratovich Kodirov

ORCID: 0000-0002-3656-5770

akbar2005ak@gmail.com

Nilufar Muhiddinovna Muhammadova

muhammadovanilufar40@gmail.com

E'zoza Zuxriddin-qizi Muhammadiyeva

muhammadiyevaezoza6@gmail.com

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik va amaliy jihatlarini yoritadi. Unda multimedia texnologiyalarining ta'limdagi o'rnini hamda bolalarning psixologik va intellektual rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Audio, video, animatsiya va interaktiv o'yinlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati ko'rsatilib, ularni bolalarning yosh xususiyatlariga mos qo'llash usullari asoslangan. Shuningdek, multimedia bolalarda bilish faolligini oshirish, nutq, xotira va tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Shu bilan birga, texnik yetishmovchilik, pedagoglarning AKT ko'nikmalari va sog'liq bilan bog'liq muammolar ham qayd etilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, multimedia texnologiyalari, AKT, interaktiv ta'lim, pedagogik texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, elektron ta'lim resurslari, didaktik vositalar, multimediali o'yinlar

## **Multimedia technologies and their problems in preschool educational organizations**

Akbar Shuhratovich Kodirov

ORCID: 0000-0002-3656-5770

akbar2005ak@gmail.com

Nilufar Muhiddinovna Muhammadova

muhammadovanilufar40@gmail.com

E'zoza Zukhriddin-qizi Muhammadiyeva

muhammadiyevaezoza6@gmail.com

Shahrisabz State Pedagogical Institute

**Abstract:** This article covers the pedagogical and practical aspects of using multimedia tools in preschool educational organizations. It analyzes the role of multimedia technologies in education and their impact on the psychological and intellectual development of children. The importance of audio, video, animation and interactive games in the educational process is shown, and methods of using them in accordance with the age characteristics of children are based. It is also emphasized that multimedia serves to increase cognitive activity in children, develop speech, memory and thinking. At the same time, technical shortcomings, ICT skills of teachers and health-related problems were also noted.

**Keywords:** preschool education organization, multimedia technologies, ICT, interactive education, pedagogical technologies, educational effectiveness, electronic educational resources, didactic tools, multimedia games

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida ta'lim tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida multimedia va raqamli texnologiyalar umumiy o'rta hamda oliy ta'lim tizimlarida keng joriy etilmoqda. Biroq ta'limning boshlang'ich bosqichi hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimida bu jarayon nisbatan sust kechmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri - maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga mos elektron resurslarning yetarli emasligi hamda axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlanganlik darajasining pastligidir.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son Qonunining 53-moddasida ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'quv-uslubiy hamda didaktik materiallar yaratish, shuningdek, ilmiy tadqiqotlar olib borish vazifalari belgilab berilgan.[1]Mazkur talablar asosida olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan samarali foydalanish masalalari chuqur o'rganildi. Ishlar "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida olib borilib, "Bek va Lola" multimedia resurslarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlari va kamchiliklari o'rganilib chiqildi. Natijada ushbu multimedia vositalarining kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarida qo'llanilishi, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mosligi hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Mazkur elektron platforma videoroliklarni multfilm ko'rinishida, sodda va qiziqarli tarzda taqdim etib, bolalarning bilimni oson o'zlashtirishi va eslab qolishiga yordam beradi. Shuningdek, u vaqtni samarali tashkil etish, qiziqishni oshirish va aqliy faollikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Multimedia - bu matn, ovoz, rasm, video va animatsiyani birlashtirgan texnologiya bo'lib, maktabgacha ta'limda muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy turlariga audio materiallar (she'r, qo'shiq, ertaklar), video lavhalar, animatsiyalar, elektron darsliklar va interaktiv o'yinlar kiradi. Ushbu vositalar bolalarga kundalik hayotda ko'rish qiyin bo'lgan jarayon va hodisalarni (tabiat, hayvonot dunyosi, transport va boshqalar) tushunarli tarzda namoyish etish imkonini beradi.[7]

Multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun slaydlar sodda, tushunarli va sifatli bo'lishi, ortiqcha ma'lumot bilan yuklanmasligi, tasvirlar yirik va tabiiy holatda berilishi lozim. Animatsiya va musiqa mavzuga mos, slaydlar soni esa me'yorida (8-10 ta) bo'lishi tavsiya etiladi.[7]

Mashg'ulot jarayonida multimedia barcha bolalarga aniq ko'rinishi, og'zaki tushuntirish bilan uyg'un olib borilishi hamda bolalarning ko'rish, eshitish kabi sezgilarini birgalikda jalb etishi muhimdir. Shu bilan birga, jismoniy mashqlar va ko'zlar uchun gimnastika tashkil etilishi zarur.

Multimedia vositalaridan noto'g'ri va me'yoridan ortiq foydalanish bolalar yoshiga mos kelmasligi yoki ularni charchatishi mumkin. Shu sababli, MTTlarda multimedia namoyishi uchun maxsus jihozlangan, yorug'lik va gigiyena talablarga javob beradigan xonalar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Biz olib borgan tadqiqotlar Shahrisabz shahridagi 2-son Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshirildi. Tadqiqot kichik va o'rta guruh bolalari o'rtasida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida Gemini sun'iy intellekti imkoniyatlaridan foydalangan holda videoroliklar hamda qiziqarli, bellashuvga asoslangan interaktiv metodlardan foydalanildi. Xususan, "Meva va sabzavotlar" mavzusida meva va sabzavot obrazlari animatsiya orqali jonlantirilib, ular "gapiruvchi" qahramonlar sifatida bolalarga o'z nomi, rangi va foydali xususiyatlari haqida ma'lumot beradigan tarzda taqdim etildi. Bu usul bolalarda yuqori qiziqish uyg'otib, mavzuni oson va tez o'zlashtirishga yordam berdi.

Tadqiqot 2 ta guruh o'rtasida ya'ni kichik va o'rta guruhlar kesimida o'tkazildi. Har bir guruhda 30 nafardan bolalar ishtirokida (jami 60 nafar) o'tkazildi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

- 1-guruh Kichik guruhda bolalarning 83% mavzuni muvaffaqiyatli o'zlashtirdi, 17% qismida qisman qiyinchiliklar kuzatildi;

- 2-guruh O'rta guruh bolalarida esa 87% yuqori o'zlashtirish darajasi qayd qililib, 13% bolalarda yetarli darajada o'zlashtirmaslik holati aniqlandi.

Umumiy natijalarga ko'ra, multimedia asosidagi metodlar bolalarning asosiy qismida yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. O'zlashtirmagan yoki qisman o'zlashtirgan bolalar ulushi nisbatan kam bo'lib, bu metodning samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur ishlab chiqilgan multimedia asosidagi metodlar bolalarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, "gapiruvchi" meva va sabzavotlar, animatsion videoroliklar hamda interaktiv o'yinlar orqali berilgan mashg'ulotlar bolalarda kuchli ijobiy emotsional ta'sir uyg'otdi va mavzuni oson o'zlashtirishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarning aksariyat qismi yangi bilimlarni tez va mustahkam egalladi, diqqatini uzoqroq jamlay oldi hamda mashg'ulotlarda faol ishtirok etdi. Multimedia vositalari orqali o'qitish bolalarda ko'rish va eshitish orqali eslab qolish qobiliyatini kuchaytirib, ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda, ushbu metod an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan samaraliroq bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini oshirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Multimedia asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning diqqatini jamlash, mavzuni tez va mustahkam o'zlashtirish, shuningdek, bilish faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

"Gapiruvchi" meva-sabzavotlar, animatsion videolar va interaktiv o'yinlar asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar bolalarda katta qiziqish uyg'otib, ularning faol ishtirokini ta'minladi. Natijada bolalarning 80-85% mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirdi, o'zlashtirmaganlar ulushi esa kam bo'ldi. Bu multimedia texnologiyalari an'anaviy usullarga qaraganda samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Biroq, MTTlarda multimedia vositalaridan foydalanishda ayrim pedagoglarning AKT bo'yicha malakasi yetarli emasligi va texnik jihozlarning to'liq emasligi kabi muammolar mavjud.

Takliflar: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun pedagoglarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha malakasini muntazam oshirish.

Tarbiyachilarni zamonaviy raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanishga o'rgatish bo'yicha maxsus trening va kurslarni tashkil etish.

MTTlarni zamonaviy texnik jihozlar (elektron doskalar, kompyuterlar, multimedia qurilmalari) bilan to'liq ta'minlash.

Umuman olganda, multimedia texnologiyalarini maktabgacha ta'lim jarayoniga keng joriy etish bolalarning intellektual, nutqiy va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida". O'RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. Toshkent, 2021-yil.
3. Xoliqova D.A. "Maktabgacha ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish". Toshkent, 2022.
4. Multimedia texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalar. Toshkent, 2023
5. Mirzakhmedova, Hulkar, et al. "Contextual Text Analysis for Assessing Reading Comprehension in Digital Education Tools." 2026 Second International Conference on Intelligent Systems for Communication, IoT and Security (ICISCoIS). IEEE, 2026.
6. Kodirov, Akbar, Farangiz Kenjayeva, and Marjona Yusupova. "Maktablarda raqamli texnologiyalar asosida aniq fan mavzularini o'tishda erishilayotgan yutuq va kamchiliklar." Универсальная индексная библиотека инновационных исследований в современном мире: теория и практика 3.4 (2024): 49-52.
7. Shuxratovich, Kodirov Akbar, Choriyeva Xursanoy Xusanovna, and Mirqobilov Bekzod Abdulla o'g'li. "O'rta ta'lim maktablarning boshlang'ich ta'lim sinflarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda muammo, yechim va takliflar." Journal of new century innovations 43 (2023): 96-98.
8. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "Elektron qo'llanmalar yaratishda autoplay dasturidan foydalanish va imkoniyatlarini ta'lim tizimda talqin etish." Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире 3.4 (2024): 51-55.
9. Kodirov, Akbar, and Aziza Mannonova. "Pedagogik dasturiy vositalar." Универсальный индекс библиотеки молодых ученых 3.35 (2025): 119-121.
10. Raximova, A., and A. Kodirov. "Pedagogik dasturiy vositalar. virtual laboratoriyalar va simulyatorlar." Универсальный индекс библиотеки науки и инноваций 3.36 (2025): 132-134.